

HUDUDLARDA ENERGETIKA RESURSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
EKONOMETRIK TAHLILI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Safarov Akbar Shokirovich

Annotatsiya: Energetika resurslari samaradorligini oshirishning iqtisodiy modellari va metodlari, jumladan ekonometrik modellar, hududlarda energiya sarflashning optimizatsiyasi va iqtisodiy o‘rinishga ta‘sirini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu maqola hududlarda energetika resurslari samaradorligini oshirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ekonometrik modellar va ularning imkoniyatlari haqida tushunchalarni taqdim etishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Energetika resurslari samaradorligi, energetika resurslari modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, xarajatlarni minimallashtirish, salohitini baholash, optimallashtirish, klasterlashtirish.

KIRISH

Yildan-yilga energiya resurslariga talab oshib borayotgan zamonda ulardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikni kamaytirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Shu maqsadda 2024-yilda hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirildi. Bu maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqarishga xalal bermagan holda energiya iste‘molini samarali tashkil etish orqali muayyan hajmlarni tejashni nazarda tutadi.

Shuningdek, iste‘molchilarni energiya auditidan o‘tkazishning yangi tartibi joriy etilmoqda. Unga ko‘ra, energiya auditori faqat xalqaro standartlarga muvofiq o‘tkaziladi. Auditor asosida tashkilot va korxonalar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va ularning ijrosi nazorat qilinadi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni aloqador vazirlik va idoralar bilan birgalikda chuqur va puxta ishlab chiqish, ko‘rsatkichlarni xalq deputatlari mahalliy kengashlari muhokamasiga kiritish maqsadga muvofiqligini ta‘kidladi.

Prezident mutasaddilarga tayyorgarlik ishlarini hozirdan boshlash va barcha zarur chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, jumladan, elektr va issiqlik stansiyalari uzluksiz va barqaror ishlashi uchun zarur yoqilg‘i resurslari, butlovchi va ehtiyot qismlarning zaxiralarini shakllantirish, energetika infratuzilmasini ta‘mirlash va modernizatsiya qilish yuzasidan qator ko‘rsatmalar berdi.

Energetika resurslari samaradorligini oshirish — bu energiya resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ularni samarali tarzda boshqarish va iqtisodiyotda energiya



sarfini kamaytirish jarayonidir. Bu jarayon, ayniqsa, global isish, energiya xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanish masalalariga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Energetika samaradorligi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiyotni rivojlantirish va energetik xatarlarni kamaytirish uchun ham zarurdir

MUAMMONI QO'YILISHI

Tadqiqot jarayonida axborotlarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Tahlil va sentiz kabi usullaridan va yondoshuvlaridan ham foydanilgan

MASALANI YECHISHNING NAZARIY QISMI

Ekonometrik modellar iqtisodiy nazariy tushunchalarni statistik ma'lumotlar bilan qo'shib, amaliyotdagi tendensiyalarni tahlil qilish va kelajakdagi oqibatlarni prognoz qilishga imkon beradi. Hududlarda energetika resurslari samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy modellar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarish va iqtisodiy o'sish

Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarishda ekonometrik modellarning asosiy maqsadi energiya sarflashni minimizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir.

Yangilangan energiya manbalari va energiya samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish.

2. Hududlarda energetika resurslarini samarali boshqarishda ekonometrik modellarning asosiy maqsadi — energiya sarflashni minimizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir.

Texnologik taraqqiyot: Yangilangan energiya manbalari va energiya samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish.

Ta'lim va o'qitish: Xodimlarni energiyani tejash va ishlab chiqarishni optimallashtirish bo'yicha o'qitish.

Hukumat siyosati: Hududlarda energiya resurslarini boshqarishda davlat tomonidan yordam va dasturlar.

Energetika samaradorligini oshirishning ahamiyati shundan iboratki

Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish- samarali energiya foydalanish, ayniqsa qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, issiqxona gazlarini kamaytiradi va atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qiladi.

*Iqtisodiy tejamkorlik-*energiya samaradorligini oshirish orqali sanoat va iste'molchilar uchun energiya xarajatlarini kamaytirish mumkin. Bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

*Energiya xavfsizligini ta'minlash-*energiya samaradorligi, energiya manbalarining cheklanganligini inobatga olgan holda, energiya xavfsizligini oshiradi, chunki bu energiya



resurslaridan foydalanishni yaxshilaydi va tashqi ta'minotga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi.

MASALANI YECHISHNING AMALIY QISMI

1. Texnologik yangiliklar va innovatsiyalar joriy qilish yo'lida, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish energiya samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Misol uchun: Energiyani qayta ishlash texnologiyalari: Yangi avlod qurilmalaridan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

Energiyani tejash tizimlarini kiritish: Sanoat va uy-joy sektorlarida energiya tejash texnologiyalarining, masalan, LED yoritgichlar, energiya samarali maishiy texnika va avtomatizatsiyalangan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi samaradorligini oshiradi.

2. Energiyani boshqarish tizimlari hududlarga tadbiiq qilish (EMS)

Energiyani boshqarish tizimlari (EMS) tashkilotlar va hududlar uchun energiya sarfini optimallashtirish va monitoring qilish imkonini beradi.

Bular orqali: Energiya iste'molini kuzatish va tahlil qilish, energiya sarfini optimallashtirish uchun strategiyalar ishlab chiqish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish mumkin.

3. Sanoat va qurilish sektorida energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar ko'rish maqsadga muvofiq. Yani sanoat uskunalarini modernizatsiya qilish, energiyani tejash uchun energiya samarali uskunalar va texnologiyalarni qo'llash.

Qurilishlarda energiya samaradorligini oshirish: Yangi qurilishlarda va mavjud binolarda energiya samaradorligini oshirish uchun izolyatsiya, qulay energiya tizimlarini o'rnatish, yashil qurilish texnologiyalaridan foydalanish.

4. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, geotermal va gidroenergiya) foydalanish energiya samaradorligini oshiradi. Bular orqali:

Energiya ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, xavfsiz va barqaror energiya manbalari ta'minlanadi, atrof-muhitga ta'sir kamayadi.

5. Energiyani tejashda davlat siyosati va strategiyalar ishlab chiqiish yulida Davlat darajasida energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalarni amalga oshirish mumkin:

Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar: Davlat tomonidan energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni yaratish.

Yashil iqtisodiyotga o'tish: Davlatlar tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish va ularni rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqish. Soliqlar va subsidiyalar: Energiyani tejash va samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni taqdim etish.



XULOSA

Energetika resurslari samaradorligini oshirish — bu global va mintaqaviy darajada iqtisodiy va atrof-muhitni himoya qilishning asosiy vositasi. Texnologik yangiliklar, energiya samaradorligini boshqarish tizimlari, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, va davlat siyosati orqali energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Ekonometrik modellar hududlarda energetika resurslarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan muhim vositadir. Bu modellar statistik ma'lumotlarning asosida, iqtisodiy o'sish va energetika sarflash o'rtasidagi dinamik aloqalarni tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, bu modellar hududlar darajasida energetika resurslarini samarali boshqarish va ulardan optimal foydalanishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi №458-son-Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori

2. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук, 3 (02), 21–48.

3. Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

4. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. Journal of Critical Review, 7(15), 1679-1684.

5. Жўраев Ф. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг истиқболдаги муаммолари ва уларни эконометрик моделлаштириш //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – С. 377-385.

6. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. Экономика и социум, (3-2 (106)), 255-262.



7. Jo'rayev, F.D., and G. Aralov.M.(2023). Qishloq xo 'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari." Educational research in universal sciences 2.2: 36-43.
8. Жўраев Ф. Д. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш //Инновацион технологиялар. – 2021. – №. 2 (42). – С. 92-95.
9. JO'RAYEV F. D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 kashkadarya region) //Экономика.–Т. 8.–С. 584-590.
10. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Vaxronova, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. Экономика и социум, (5-1 (120)), 432-434.
11. Khudoyorov, L. N. (2020). Forecasting the development of small business and private entrepreneurship on the basis of multifactorial empirical models. Science and World, (11 (87)), 41.
12. Мухитдинов, К.С., Махматкулов Х.Г. Предоставление торговых услуг населению региона. Международный журнал тенденций научных исследований и разработок (IJTSRD), e-ISSN , 2456-6470.
13. Махматқулов, G. K., & Malikova, N. T. (2019). Stochastic model activity system of rail transport. European Science Review, 1(1-2), 152-156.
14. Махматқулов, G. O. X. (2023). “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan amaliy va laboratoriya mashg 'ulotlarini o 'qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 483-486.
15. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 245-250.
16. Rakhimov, A. M. (2019). Important of bank deposit policy in expanding of the deposit base of commercial banks. Экономика и бизнес: теория и практика, (5-2), 198-200.
17. Muhammadiyevich, R. A. (2021). Residence and catering services to the population the importance of econometric modeling in regulatory assessment of consumer requirements to improve display quality. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1043-1048.

